

## **СЕКЦИЯ 4. ҚУБЛА АРАЛ БОЙЫ ХАЛЫҚЛАРЫ ТАРИЙХЫН ОҚЫТЫЎДЫН ЗАМАНАГӨЙ МЕТОД ҲӨМ УСЫЛЛАРЫ**

### **QORAQALPOG'ISTON TARIXI DARSLARIDA «ERKIN YOZISH» METODINI QO'LLASH**

**H.Atajanov**

Ajiniyoz nomidagi NDPI, Nukus shahri

*Agar bolalar erkin fikrlashni o'rghanmasa,  
berilgan ta'lif samarasi past bo'lishi  
muqarrar.*

**Islom Karimov.**

Mamlakatimizda uzlusiz ta'lif tizimini isloq qilishning tashkiliy, ilmiy va metodik asoslari yaratildi, asosiy maqsad esa komil inson va etuk malakali raqobat bardosh mutaxassislar tayyorlash, deb belgilandi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy tarkibiy qismlarini shaxs, davlat va jamiyat, uzlusiz ta'lif, fan va ishlab chiqarish tashkil etib, ular o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamonda ta'lif samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li sifatida ma'lumotli, muammoli, rasmli kabi ma'ruza va boshqa mashg'ulotlarni interfaol ta'lif orqali tashkil etish maqsadga muvofiq. Interfaol ta'lif bu o'qitish jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lmdir.

Tarix darslarini tashkil etishda interfaol metodlar va strategiyalarning o'rnini va xususiyatlari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. CHunki, har bir mashg'ulot turiga qarab uning xususiyatidan kelib chiqib, interfaol metod yoki strategiyalar tanlanadi. Tanlangan interfaol metod yoki strategiyalarning imkoniyatlaridan foydalanib, mashg'ulotning muayyan bosqichida pedagogning mahoratidan kelib chiqib qo'llaniladi.

Pedagogik texnologiya – bu amaliyotga samarani tadbiq etadigan, tegishli tamoyillar asosida ishlab chiqilgan o'quv jarayonining loyihasidir. [2.Ishmatov Q, 12b].

O'qituvchi o'zining pedagogik texnikasidan foydalanib, mashg'ulot jarayonining loyihasini ishlab chikadi va mashg'ulotning loyihasi asosida mashg'ulot olib borishni tashkillashtiradi.

Aksariyat hollarda ma'lumotli ma'ruzalarda o'qituvchi tomonidan mashg'ulotning da'vat (kirish) bosqichida o'quvchilarni o'ziga chorlash yoki mavzu bo'yicha tushunchasini uyg'otib olishi uchun umumiy tartibda «ERKIN YOZISH metodidan foydalangani maqsadga muvofiq bo'ladi. CHunki, «Erkin yozish» erkin bayon qilish usuli bo'lib, bu metod orqali har bir o'quvchi o'z fikrini erkin bayon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Buning natijasida o'qituvchi sinfdagi o'quvchilar haqida dastlabki yoki mavzu, fan bo'yicha o'quvchilarning dastlabki bilimlari, tushuncha va ko'nikmalari haqidagi ma'lumotga ega bo'ladi. Qolaversa mazkur erkin yozish metodi o'rjanilayotgan muammo yoki tahlil qilinayotgan masala yuzasidan shaxsiy taassurot, tasavvurlarni ifodalashga xizmat qiladi.

Erkin yozish metodini qo'llashda o'qituvchi o'quvchilar tomonidan mavzu g'oyalari tushunchasi va tarkibini aniqlashtirib ularni yagona tizimlashtirib, o'zlarining xulosalarini bayon etish orqali ularni nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

**Mashg'ulotlar jarayonida metodni qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi.**

1. O'qituvchi erkin yozish metodida o'quvchilarga qulaylik yaratish uchun yoki mavzuning asl mohiyatini yoritish maqsadida mavzuning eng ahamiyatli jihatini tanlaydi;

2. O'qituvchi o'quvchilarga savolni berishdan oldin, ularning tartib va mazmuni bilan tanishtiradi;

3. O'qituvchi o'quvchilarlarga bergan savol bo'yicha erkin fikr yuritishlari va echimni topishlari uchun imkoniyat yaratadi;

4. O'qituvchi o'quvchilarlar tomonidan o'z fikrlarini bayon qilish tartibini belgilab beradi;

5. Har bir o'quvchining erkin yozish metodi bo'yicha mustaqil ishlashini nazorat qilib boradi;
6. Erkin yozish mavzusini o'quvchilarning e'tiboriga havola etadi;
7. Ayrim o'quvchilar (imkoniyatiga qarab 3-5 nafar) o'z fikrlarini bayon etadi;
8. O'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni o'qituvchi umumlashtiradi va yakuniy xulosasini bayon qiladi. [2. Ishmatov Q, 95b].

Erkin yozish metodi bo'yicha mashg'ulotning chaqiruv bosqichida o'quvchilarini mashg'ulotga jalg qiladi va ularni mavzu bo'yicha fikrini jamlashda mashg'ulot o'tkazilayotgan fanning mavzusi doirasida (masalan: umumta'llim mакtablarining 7-sinfida o'qitiladigan «O'zbekiston tarixi» fanidan o'quvchilarga qarata («Men Amir Temur saltanati haqida nimalarni bilaman» mavzusida) savol beriladi. O'qituvchi o'quvchilarlarga mustaqil bajarishlari uchun savol berayotgan vaqtida, vaqtini e'lon qilib va bu vaqtning muddati 5-7 daqiqadan oshmasligi lozim. Berilgan savol bo'yicha belgilangan vaqt o'tgandan keyin ayrim ixtiyoriy o'quvchilarining yozma ishini o'qittiradi, o'quvchilar tomonidan bildirilgan javoblarda aniq javob yoki to'liqroq javob bo'lmasa, o'qituvchining o'zi jamoaga murojaat qilib, berilgan savolga oydinlik kiritish va aniq javobga ega bo'lishlari uchun savolning javobini og'zaki bayon qiladi.

Erkin yozish metodi jarayonida o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilar faoliyatida erkin fikr yuritishning mantiqiy bosqichlari – tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiriladi.

«Erkin yozish» metodini qo'llash metodikasi eng avvalo o'qituvchidan mahorat talab etiladi, ushbu metodni o'qituvchi o'zi aniq bilishi lozim.

«Erkin yozish» metodi bo'yicha o'qituvchi etarli tushuncha yoki ko'nikmaga ega bo'lmasa metoddan samarali foydalanib bo'lmaydi.

Metodni qo'llashdan oldin mashg'ulotning texnologik modelida loyiha ishlab chiqilib, mazkur metodni qo'llash vaqtin, bosqichiga qarab o'quvchilarga beriladigan savol oldindan rejalashtiriladi. Berilayotgan savol hajm jihatdan va muhokama jihatidan muhokamaga chorlaydigan savol bo'lishi lozim.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga kiritishda uning boshqaruvchisi bo'lган o'qituvchigina ko'zlangan maqsadga erishishning bosh kafolatchisi bo'ladi. Agar shu nuqtai nazardan kelib chiqib qaraydigan bo'lsak, ta'llim tizimining boshqaruvchisi bo'lmish o'qituvchining tayyorgarlik darajasini birinchi o'ringa qo'yish lozim. Shu sababli pedagogik jarayonlarning kun tartibidagi aksariyat dolzarb muammolarining ijobiylar yoki maqsadga muvofiq tarzda hal qilinishi ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy salohiyati va pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5. T.: O'zbekiston, 1997. – 384 b.
2. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. Maruza matni. Namangan, NamMPI.-2004.-95b.